

**GENETIKA VA O‘SIMLIKLAR EKSPERIMENTAL
BIOLOGIYASI INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.B.53.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**GENETIKA VA O‘SIMLIKLAR EKSPERIMENTAL BIOLOGIYASI
INSTITUTI**

SOBIROV FARIDUN SHAVKATOVICH

***AEGILOPS L.* TURKUMINING MAHALLIY EKOTIPLARINI FENOTIPIK
VA GENOTIPIK SKRININGI**

03.00.09 – Umumiy genetika

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Sobirov Faridun Shavkatovich

Aegilops L. turkumining mahalliy ekotiplarini fenotipik va genotipik

skriningi..... 3

Собиров Фаридун Шавкатович

Фенотипический и генотипический скрининг местных экотипов рода

Aegilops L..... 21

Sobirov Faridun Shavkatovich

Phenotypic and genotypic screening of local ecotypes of the genus *Aegilops* L.....39

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works43

**GENETIKA VA O‘SIMLIKLAR EKSPERIMENTAL
BIOLOGIYASI INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI DSc.02/30.12.2019.B.53.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**GENETIKA VA O‘SIMLIKLAR EKSPERIMENTAL BIOLOGIYASI
INSTITUTI**

SOBIROV FARIDUN SHAVKATOVICH

***AEGILOPS L.* TURKUMINING MAHALLIY EKOTIPLARINI FENOTIPIK
VA GENOTIPIK SKRININGI**

03.00.09 – Umumiy genetika

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI
AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2025

Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/B1054 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uchta tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.genetika.uz) hamda "Ziyonet" axborot-ta'lim portalining (www.ziyonet.uz) manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Djabbarov Ibrohim Shodmanovich

biologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Adilov Baxtiyor Shuxratovich

biologiya fanlari doktori

Xalilov Nasriddin Xalilovich

qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Toshkent davlat agrar universiteti

Dissertatsiya himoyasi Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti huzuridagi DSc.02/30.12.2019.B.53.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil « ____ » _____ soat ____dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 111208, Toshkent viloyati Qibray tumani, Yuqori yuz a/b. Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi institutining majlislar zali. Telefon: (+99871)264-23-90, faks (+99871)264-23-90. E-mail: igebr@academy.uz, genetics@uzsi.net, gen@inst.gov.uz.)

Dissertatsiya bilan Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (____raqami bilan ro'yxatga olingan.) Manzil: 111208, Toshkent viloyati Qibray tumani, Yuqori yuz a/b. Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi institutining majlislar zali. Telefon: (+99871)264-23-90.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil « ____ » ____ kuni tarqatildi.

(2025-yil « ____ » _____dagi ____raqamli reyestr bayonnomasi)

A.A. Narimanov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, q/x.f.d., professor

I.Dj.Kurbanbayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, b.f.d., professor

S.K.Baboyev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi, b.f.d., professor.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Dunyoning eng muhim don ekinlaridan biri bo‘lgan bug‘doy ekini beshta qit‘ada yetishtirilib, butun dunyo ekin maydonlarining katta qismini egallaydi. Bug‘doy seleksiyasi bo‘yicha jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, hosildorlikka qaratilgan maqsadli seleksiya va bu ekinni ko‘p asrlar mobaynida yetishtirish uning genofondining genetik xilma-xilligi keskin kamayishiga va moslashuvchanlikning qimmatli allellari yo‘qotilishiga olib kelmoqda va bu esa bug‘doy zamonaviy navlarining zararli kasalliklarga chidamlilik genlari bo‘yicha qashshoqlanishiga sabab bo‘lib, biotik stresslarga moslashuvchanlik pasayishi xavfini kuchaytirmoqda. Dunyoning eng asosiy oziq-ovqat ekinining genofondini boyitish uchun, qimmatli xo‘jalik belgilarining bitmas-tuganmas zaxirasi yumshoq bug‘doyga yaqin qarindosh bo‘lgan *Aegilops* L. turlari o‘zida samarali genlarni saqlovchi turkum hisoblanadi. Shu bois, bugungi kunda jahonda *Aegilops* L. turkumining vakillari *Triticum* L. turkumini yaxshilash bo‘yicha seleksion dasturlarda va filogenetik tadqiqotlarda muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda oxirgi o‘n yilliklarda *Aegilops* L. turkumi turlarini fenotiplash va genotiplash bo‘yicha tadqiqotlar jadal olib borilmoqda, bu esa an‘anaviy genetik-seleksion usullarni molekulyar-genetik tadqiqotlar bilan uyg‘unlashtirgan holda, turkum mahalliy turlarining genetik xilma-xilligini o‘rganish va oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashning asosi bo‘lib xizmat qiladigan bug‘doy seleksiyasining eng dolzarb vazifalari sifatida qaralmoqda. Shu sababli, *Aegilops* L. turkumi mahalliy turlarining genofondini yig‘ish, saqlash, o‘rganish, istiqbolli namunalarni ajratib olish va bug‘doy amaliy seleksiyasi dasturlariga jalb etish katta ilmiy va amaliy ahamiyatga egadir.

Respublikamizda genetik tadqiqotlar asosida *Aegilops* L. turkumi mahalliy turlari genofondini shakllantirish, tur xilma-xilligini ifodalovchi *ex-situ* kolleksiyalarini saqlash bilan bog‘liq ravishda namunalarning fenotipik va genotipik xilma-xilligini o‘rganish bo‘yicha ma‘lum yutuqlarga erishilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmonida¹ “Qishloq xo‘jaligini ilmiy asosda intensiv rivojlantirish hisobiga dehqon va fermerlarning daromadlarini 2 marta oshirish va qishloq xo‘jaligi yillik o‘sishini 5% darajasiga yetkazish” vazifalari qo‘yilgan. Bu vazifalardan kelib chiqqan holda, abiotik va biotik stress omillariga chidamli bo‘lgan va mahalliy tuproq iqlim sharoitlariga moslashuvchan navlarni yaratish muhim hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-apreldagi PQ-3683-sonli “O‘zbekiston Respublikasida urug‘chilik tizimini tubdan takomillashtirish chora

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni

tadbirlari to‘g‘risida”gi² Qarorining II bandi 6-so‘zboshidagi “Mamlakatimizda qishloq xo‘jalik ekinlarini to‘liq inventarizatsiya qilish”, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-noyabrdagi PQ-4899-sonli “Biotexnologiyalarni rivojlantirish va mamlakatning biologik xavfsizligini ta‘minlash tizimini takomillashtirishning kompleks chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi³ Qarorining 2-ilovasi “Biotexnologiya sohasida 2020-2024 yillarda olib boriladigan ustivor ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirish dasturi”ning 15-bandidagi “O‘simliklarning molekulyar-genetik pasportlarini yaratish” bo‘yicha qo‘yilgan vazifalarni bajarishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. “Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Yovvoyi shakllarning genomlarida genlar va allel xilma-xilligini o‘rganish bo‘yicha ma‘lumotlar T. S. Cox (2017), O. S. Alexandrov va boshq. (2018) ishlarida keltirilgan. Yovvoyi shakllarning genetik xilma-xilligini baholash uning hamda PZR texnologiyasidan foydalangan holda kolleksion namunalarni identifikatsiyalash to‘g‘risidagi ma‘lumotlar M.R. Salehi (2018), O.R. Abbasov va boshq. (2020), F. Ghobadi va boshq. (2021), L. Khodayee va boshq. (2021), J. Leśniowska-Nowak (2021) ishlarida keltirilgan. Bug‘doy genofondini boyitish uchun bug‘doy yovvoyi qarindoshlari genetik kolleksiyasining potentsiali haqida ma‘lumotlar A.F. Merejko (1999), G.G. Sitpayeva (2004), M. A. Yesimbekova va boshq. (2017), A. M. Przewiyeslik-Allen va boshq. (2018) ishlarida keltirilgan. Yovvoyi qarindoshlar genofondining yumshoq bug‘doyning hosildorligi va ekologik barqarorligining yaxshilanishidagi o‘rni haqida ma‘lumotlar G. Kumar va boshq. (2021), A. Lee va boshq. (2020), F. Fatima va boshq. (2020) ishlarida keltirilgan. Yovvoyi qarindoshlar genomlaridagi genlar va allel xilma-xilligini o‘rganish va molekulyar markerlarning rivojlanishi haqida A.A. Kocheshkova va boshq. (2013), A.A. Pochtovyy va boshq. (2018), M. Mahjoob va boshq. (2021) ishlarida ma‘lumotlar keltirilgan. *Triticum* L. va *Aegilops* L. turkumlari turlarining morfologik va anatomik belgilarini baholash bo‘yicha ma‘lumotlar A. Hayati (2021) ishida keltirilgan. Yovvoyi qarindoshlarning kasallik va zararkunandalarga chidamliligi va ulardan bug‘doy genofondini kengaytirishda foydalanish to‘g‘risida K. Thiyagarajan va boshq. (2020), S. Grewal va boshq. (2020), R. Kamboj va boshq. (2020) ishlarida ma‘lumotlar keltirilgan.

Biroq, yuqoridagi tadqiqotlar bug‘doy yovvoyi qarindoshlarining ekologik va geografik tarqalishining fenotipik va genetik xilma-xillik darajasi haqida to‘liq ma‘lumotni o‘z ichiga olmaydi. Kolleksiyalarni yig‘ish sohasida olib borilgan

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 27-apreldagi PQ-3683-sonli “O‘zbekiston Respublikasida urug‘chilik tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori

³ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 25-noyabrdagi PQ-4899-sonli “Biotexnologiyalarni rivojlantirish va mamlakatning biologik xavfsizligini ta‘minlash tizimini takomillashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori

ilmiy-tadqiqot ishlari kamligi sababli, zamonaviy DNK-genotiplash usullaridan foydalangan holda yovvoyi bug‘doy qarindoshlarining fenotipik va genotipik xilma-xillik darajasini saqlab qolish va o‘rganish dolzarb muammo bo‘lib qolmoqda.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim yoki ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Genetika va o‘simliklar eksperimental biologiyasi instituti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining budjet doirasida “Bug‘doyning yuqori sifatli, genetik boyitilgan, muhitning biotik va abiotik omillariga chidamli, yuqori to‘yimlilik xususiyatiga ega bo‘lgan navlarini yaratish. Dukkakli ekinlar biotexnologiyasi” loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi O‘zbekistonning janubi-sharqiy mintaqasidagi *Aegilops* L. turkumi mahalliy turlarining fenotipik va genotipik xilma-xilligi va bug‘doy seleksiyasi uchun namunalar tanlash samarasini oshirish uchun to‘plam strukturasi aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari quyidagilardan iborat:

Aegilops L. turkumi mahalliy turlarining geografik tarqalish xususiyatlarini aniqlash;

turli xil ekologik va geografik kelib chiqishiga ega bo‘lgan *Aegilops* L. turkumi mahalliy turlarining genetik xilma-xilligini aniqlash uchun SSR-markerlari asosida mikrosatellit tahlilini o‘tkazish;

tanlab olingan *Aegilops* L. turkumi mahalliy turlari namunalarini morfologik va fenologik belgilariga, o‘simliklarning hosildorlik parametrlariga ko‘ra tavsiflash;

kolleksiya namunalari asosiy miqdoriy belgilarining o‘zaro bog‘liqliklari va o‘zgaruvchanligini aniqlash;

bug‘doy amaliy seleksiyasi uchun *Aegilops* L. turkumi birlamchi namunalarini qimmatli xo‘jalik belgilari va xususiyatlariga ko‘ra ajratish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O‘zbekiston janubi-sharqiy mintaqasidagi *Aegilops* L. turkumi to‘rtta mahalliy turlarining 140 ta kolleksion namunalari olingan.

Tadqiqotning predmeti. *Aegilops* L. turkumi mahalliy turlari kolleksion namunalarini fenotiplash, ularni SSR-markerlari asosida genotiplash, miqdoriy belgilar ko‘rsatkichlarining o‘zgaruvchanligini aniqlash, shuningdek, seleksiya dasturlarida foydalanish uchun tanlangan istiqbolli namunalarni baholash hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiya ishida molekulyar-genetik usullar, jumladan, DNKni ajratish va tozalash, polimeraza zanjir reaksiyasi (PZR), agaroz va poliakrilamid gellarida (PAAG) elektroforez, mikrosatellit markerlar (SSR) dan foydalanib genotiplash, *Aegilops* L. turkumi mahalliy turlarining fenologiyasi va hosildorlik strukturasi aniqlash uchun seleksion usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

O‘zbekistonning janubi-sharqiy mintaqasida *Aegilops* L. turkumiga mansub mahalliy turlarning ekologik-geografik tarqalishi va xilma-xillik xususiyatlari aniqlangan;

ilk bor SSR-tahlili natijasida *Aegilops* L. turkumi mahalliy turlari kolleksiyasining genetik xilma-xilligi, mahalliy turlar orasidagi genetik masofalar aniqlangan va filogenetik daraxt tuzilgan, o'rganilgan DNK markerlari asosida O'zbekistonning janubi-sharqiy mintaqasida turlarning klasterlanishini isbotlangan;

Aegilops L. turkumning mahalliy turlarini DNK pasportizatsiyalash uchun eng informatsion SSR-markerlari tanlab olingan. Mikrosatellit tahlillari natijasida eng informatsion SSR-markerlari aniqlangan (besh va oltita allel variantlari), allel chastotasi va o'rtacha geterozigotlik hisoblab chiqilgan, bu esa bug'doy amaliy seleksiyasi uchun potensial belgilarni aniqlash imkonini bergan.

Aegilops L. turkumning mahalliy turlarini baholash morfologik va fenologik belgilar va o'simliklarning hosildorlik ko'rsatkichlari asosida baholangan. Tahlil qilingan belgilarning yuqori qiymatlariga ega bo'lgan istiqbolli namunalar aniqlangan: poya uzunligi bo'yicha (3); mahsuldor poyalar (4); boshqoq uzunligi (2); boshqoqdagi donlar soni (3); boshqoqdagi don vazni (2); 1000 dona don og'irligi (2), bu esa seleksiya yo'nalishiga qarab foydalanishga imkon bergan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Aegilops L. turkumi mahalliy turlarini o'rganish natijasida uning kolleksiyasi tavsiflangan, O'zbekistonning donli ekinlar seleksion dasturlarida kelgusida qo'llash uchun tavsifiy va baholash ma'lumotlari bazalari yaratilgan;

Bahorgi yumshoq bug'doy seleksiyasining turli yo'nalishlari uchun amaliy ahamiyatga ega bo'lgan qimmatli xo'jalik belgilarining manbalari bug'doyni yaxshilashning milliy dasturlari uchun ajratib olingan;

Aegilops L. turkumi mahalliy D-genomli turlarining ajratilgan namunalarni seleksiya maqsadlarida boshlang'ich manba sifatida foydalanish uchun tavsiflash imkonini beruvchi qimmatli-xo'jalik belgilari bo'yicha kolleksiyasi (belgili kolleksiya) shakllantirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi uch yillik dala tajribalari va laboratoriya tadqiqotlarining uslubiy jihatdan to'g'ri qo'yilganligi, amaliy kompyuter dasturlari asosida matematik usullar yordamida tadqiqot natijalarini statistik qayta ishlanganligi, olingan natijalarning dunyo hamda mamlakatimiz olimlari tomonidan bajarilgan tadqiqot natijalari bilan taqqoslanganligi, tadqiqot natijalarining mahalliy va xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda hamda yetakchi ilmiy jurnallarda e'lon qilinganligi bilan izohlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati *Aegilops* L. turkumi mahalliy turlarining genetik xilma-xilligining boshlang'ich statistik tahlili, polimorfizm darajasi, filogenetik munosabatlari, mikrosatellit markerlarini tekshirish va samarali marker allellari sonini aniqlash bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati bug'doyni yaxshilash milliy dasturlari uchun ahamiyatli bo'lgan qimmatli xo'jalik belgilar manbalari tanlab olinganligi, bahorgi yumshoq bug'doy seleksiyasining turli yo'nalishlarida amaliy ahamiyatga egaligi, *Aegilops* L. turkumi mahalliy turlarining qimmatli xo'jalik belgilari bo'yicha D-genomli kolleksiyasi (belgili kolleksiyasi) shakllantirilganligi, bu esa tanlangan namunalarni birlamchi material sifatida seleksiyada foydalanishga

xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. *Aegilops L.* turkumining mahalliy ekotiplarini fenotipik va genotipik skriningidan olingan ilmiy natijalar asosida:

O‘zbekistonning janubi-sharqiy mintaqasida muhofazaga muhtoj mahalliy *Aegilops L.* D-genom turlarining tabiiy tarqalish hududlarini saqlab qolish chora-tadbirlari Samarqand viloyati ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi boshqarmasi amaliy faoliyatiga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligining 2024-yil 3-apreldagi 03-03/3-3166-son ma’lumotnomasi). Natijada mahalliy D-genom turlarining populyatsiyalarini saqlab qolish va muhofaza qilish chora-tadbirlarini ishlab chiqish imkonini bergan;

bug‘doyning sho‘rxoqlikka va qurg‘oqchilikka chidamlilik bilan bog‘liq DNK markerlar paneli tuzilgan hamda ushbu DNK-markerlar to‘plami (WSP006, WSP044, WSP107, WSP130, WSP156, WSP190) O‘zbek-Belarus hamkorligida bajarilayotgan IL-4821091674-son “Qurg‘oqchilikka chidamli istiqbolli navlarni yaratish uchun samarali molekulyar markerlarni ishlab chiqish maqsadida degidrinlarni kodlovchi genlarning yumshoq bug‘doyning qurg‘oqchilikka chidamlilikdagi hissasini aniqlash” loyihasida foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining 2024-yil 11-iyundagi 4/1255-129-son ma’lumotnomasi). Natijada sho‘rxoqlikka va qurg‘oqchilik belgilariga ega navlarni tanlash imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta, jumladan, 3 ta xalqaro va 1 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 8 ta ilmiy ish nashr etilgan, shundan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy Attestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta maqola, jumladan, 2 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnalda nashr etilgan, 1 ta mualliflik guvohnomasi olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida olib borilgan tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmetlari tavsiflangan, ilmiy ishning Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari keltirib o‘tilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati bayon qilingan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilinishi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiya tuzilishi haqida ma’lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning “**Bug‘doyning genetik xilma-xilligini kengaytirishda *Aegilops L.* turkumi turlarining ahamiyati**” deb nomlangan birinchi bobida

dissertatsiya mavzusi doirasida xorijiy va mamlakatimiz olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqot ishlarining ahamiyati, bug‘doyning genetik xilma-xilligini kengaytirishda, donli ekinlarning genetik xilma-xilligini o‘rganishda molekulyar markerlarning rolini aniqlash va ulardan foydalanish jarayonida olib borilgan tadqiqotlarning ishonchliligini, tadqiqot obyektini to‘g‘ri tanlashda *Aegilops* L. turkumining turlari va ularning qimmatli xo‘jalik belgilariga ko‘ra xilma-xilligini aniqlash, xususan, yovvoyi qarindoshlar genomlaridagi genlar va allel xilma-xilligini o‘rganish va zamonaviy texnologiyalar asosida molekulyar markerlarni ishlab chiqish haqida umumiy ma‘lumot berilgan.

Dissertatsiyaning “**Tadqiqot o‘tkazilgan joy va sharoitlari, manbai va uslublari**” deb nomlangan ikkinchi bobida tadqiqot o‘tkazish joyi va sharoitlari, tadqiqot obyektining xususiyatlari, tadqiqot usullari, fenotipik va molekulyar usullarning laboratoriya va dala sharoitida fenotiplash va genotiplash uchun SSR-markerlar yordamida qo‘llanilishi, hamda olingan natijalarni tahlil qilishda tavsifiy statistika usullar keng yoritilgan.

Dissertatsiyaning “***Aegilops* L. turkumi mahalliy turlarining geografik tarqalishi va biologik xususiyatlari**” deb nomlangan uchinchi bobida *Aegilops* L. turkumi mahalliy turlarining geografik tarqalishi, ekologik xususiyatlari va biologik xilma-xilligini tahlil qilish bo‘yicha tadqiqot natijalari haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

Bobning birinchi paragrafida *Aegilops* L. turkumi mahalliy turlarining geografik tarqalishi bo‘yicha natijalar keltirilgan.



1-rasm. *Aegilops* L. turkumi mahalliy turlari urug‘ namunalarni yig‘ish bo‘yicha marshrut tekshirish xaritasi⁴

O‘zbekiston janubi-sharqiy mintaqasi Samarqand va Qashqadaryo viloyatlarining 3 ta ma‘muriy tumanlarida o‘tkazilgan marshrut-tekshirish ishlari natijasida bu hududlar florasida bug‘doyning yovvoyi qarindoshlari – *Aegilops* L.

⁴ <http://google-karta.ru/>

turkumining 5 turi aniqlangan: *Ae. cylindrica*, *Ae. tauschii*, *Ae. triuncialis*, *Ae. crassa*, *Ae. juvenalis* (1-rasm).

Samarqand va Urgut tumanlarida amalga oshirilgan marshrut-tekshirish tadqiqotlarida yovvoyi bug'doy qarindoshlari – *Aegilops* L. turkumi mahalliy turlarining 8 ta populyatsiyalari o'rganib chiqildi va 58 ta urug' namunalari: *Ae. cylindrica* Host – 16 namuna, *Ae. tauschii* Coss (*Ae. squarrosa*) – 15 namuna, *Ae. triuncialis* – 20 namuna, *Ae. crassa* Boiss – 7 namuna yig'ildi. Kitob tumanida amalga oshirilgan marshrut-tekshirish tadqiqotlarida bizning kolleksiyamizga ushbu hududdan *Aegilops* L. turkumining 5 ta turlari: *Ae. cylindrica* – 20, *Ae. tauschii* – 19, *Ae. triuncialis* – 38, *Ae. crassa* – 4, *Ae. juvenalis* – 1 ta urug' namunalari yig'ildi.

Bobning ikkinchi paragrafida *Aegilops* L. turkumi mahalliy turlarining ekologik xususiyatlari keltirilgan.

Aegilops L. turkumi mahalliy ekotiplarini ekologik jihatdan tavsiflashda ma'lum bo'ldiki, *Ae. cylindrica*, *Ae. triuncialis*, *Ae. tauschii*, *Ae. crassa*, *Ae. juvenalis* turlarining O'zbekistonning janubi-sharqiy mintaqasida botanik xilma-xillik darajasi iqlim sharoitlarining o'zgaruvchanligi amplitudasi va juda keng ekologik amplitudaga ega bo'lgan qattiq kontinental iqlim sharoitida dengiz sathidan 500 dan 1300 m gacha mutlaq balandlikda turlarning balandlik bo'yicha tarqalishi bilan izohlangan.

Bobning uchinchi paragrafida *Aegilops* L. mahalliy ekotiplarining bioxilma-xilligini tahlil qilish natijalari keltirilgan.

Aegilops L. turkumi mahalliy turlarining namunalarini boshqoq belgilariga ko'ra o'rganish orqali ularning genetik xilma-xillik darajasi, polimorfizmi, boshqoq belgilarida o'xshashlik va farqlar aniqlandi, bu esa manba materialini maqsadli tanlash imkonini beradi.

Dissertatsiyaning "***Aegilops* L. turkumi mahalliy turlarining kolleksion namunalarini fenotiplash va genotiplash**" deb nomlangan to'rtinchi bobida kolleksion namunalarini fenologik baholash, D-genom turlarni baholash, hosildorlik elementlarining fenotipik o'zgaruvchanligini har tomonlama tahlil qilish va SSR-markerlaridan foydalangan holda *Aegilops* L. turkumi mahalliy turlarining genetik xilma-xilligini baholash bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Bobning "*Aegilops* L. turkumining mahalliy turlari kolleksion namunalarini fenologik baholash" deb nomlangan birinchi paragrafida *Aegilops* L. turkumi mahalliy turlarida morfometrik ko'rsatkichlari bo'yicha kolleksion namunalarini fenologik tahlil natijalari keltirilgan.


Aegilops L. turkumining mahalliy turlarini fenologik baholash natijasida bir xil o'suv sharoitlarida boshqoqlash davri davomiyligi bo'yicha xilma-xillik aniqlandi. Shu bilan birga, boshqoqlash davri *Ae. tauschii* va *Ae. crassa* (10-13 kun) turlarida boshqa turlarga qaraganda ertaroq, *Ae. triuncialis* (12-14 kun) turida boshqalaridan kechroq davom etgan.

Shunday qilib, *Aegilops* L. turkumining mahalliy turlar kolleksion namunalari Samarqand viloyatining Samarqand tumani sharoitida fenologik fazalarning o'tish vaqti, erta va kech pishishi bilan ajralib turdi.

Ushbu bobning ikkinchi paragrafida “*Aegilops* L. mahalliy D-genom turlarini vegetatsiya davomiyligi va fazalararo davrlar bo‘yicha baholash” bo‘yicha olingan natijalar keltirilgan. Samarqand tumani sharoitida (kuzgi ekish) turlarning D-genom namunalarini rivojlanishning asosiy bosqichida – boshqoqlash davrigacha tur va namunani yig‘ish joyiga qarab sezilarli o‘zgaruvchanlik qayd etilgan. Shu bilan birga, 2021-2022 yillarda unib chiqish-boshqoqlash va boshqoqlash-mum pishish davrlari eng o‘zgaruvchan bo‘lgan (Cv = 8,8-11,6%).

Aegilops L. turkumi mahalliy D-genom turlarining vegetatsiya davrini dala sharoitida o‘rganish natijalari har bir turning namunalarini uchta pishish guruhiga taqsimlash imkonini berdi.

Shu bilan birga, *Ae. tauschii* 13 ta namunasi o‘rtatezpishar guruhga mansub bo‘lib, 39%-ni, 14 ta namuna o‘rtapishar guruh, ya‘ni 42,0%-ni, 7 ta namuna o‘rtakechpishar guruhga mansub bo‘lib, kolleksiyaning 19,0%-ni tashkil etadi. *Ae. crassa* turi uchun o‘rtatezpishar guruhiga 3 ta namuna yoki 28,0%-ni, o‘rtapishar guruhga 6 ta namuna yoki 53 %-ni va o‘rtakechpishar guruhiga esa 2 ta namuna yoki kolleksiyaning 19,0%-ni tashkil etdi. *Ae. cylindrica* uchun o‘rtatezpishar guruhiga 12 ta namuna, ya‘ni 35,0%, o‘rtapishar guruhiga 18 namuna yoki 49% va o‘rtakechpishar guruhga 6 namuna yoki kolleksiyaning 16% tashkil etdi (2-rasm).



2-rasm. *Aegilops* L. turkumi D-genom turlarining vegetatsiya davri bo‘yicha taqsimlanishi (2021-2023 yillar)

Shunday qilib, turli xil ekologik-geografik kelib chiqishiga ega bo‘lgan *Aegilops* turkumi D-genom turlarining 81 ta kolleksion namunalarini baholash natijasida vegetatsiya davomiyligi va fazalararo davrlarga ko‘ra bug‘doy yetishtirish dasturlari amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan noyob namunalar aniqlandi.

Bobning “Hosildorlik strukturasi elementlarining fenotipik o‘zgaruvchanligi” deb nomlangan uchinchi paragrafida *Aegilops* L. turkumining mahalliy turlarida hosildorlikning asosiy ko‘rsatkichlari bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Aniqlanishicha, poya uzunligi belgisi yil sharoitlari va tur xususiyatlariga qarab sezilarli darajada farq qiladi. Bundan tashqari, o‘rganilgan *Aegilops* L. turkumi turlarida "poya uzunligi" belgisining qiymatlari 37,2 sm-dan (*Ae. triuncialis*) 45,7 sm-gacha (*Ae. crassa*) qayd etilib, 2022-yilda – 46,6 sm-dan (*Ae. triuncialis*) 56,8 sm-gacha (*Ae. crassa*); 2023-yilda esa – 42,8 sm-dan (*Ae. triuncialis*) 51,1 sm-gacha (*Ae. crassa*) va o‘rtacha 40,0 sm-dan 50,5 sm-gacha mos ravishda o‘zgarishi aniqlangan.

Aegilops turkumi mahalliy turlarining “mahsuldor poyalar” belgisining qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatdiki, bu belgining qiymati 2021-yilda – 17,0 (*Ae. crassa*) donadan 72,4 (*Ae. cylindrica*) donagacha; 2022-yilda – 20,9 (*Ae. crassa*) donadan 94,5 (*Ae. cylindrica*) donagacha; 2023-yilda – 19,4 (*Ae. crassa*) donadan 88,9 (*Ae. cylindrica*) donagacha va mos ravishda o‘rtacha koeffitsiyent 19,2 dan 21,2 gacha o‘zgarishi aniqlangan.

O‘rganilayotgan *Aegilops* L. turlari namunalarida “boshqoq uzunligi” belgisining ko‘rsatkichi 2021-yilda – 2,0 sm-dan (*Ae. triuncialis*) 8,0 sm-gacha (*Ae. crassa*); 2022-yilda – 2,4 sm-dan (*Ae. triuncialis*) 10,0 sm-gacha (*Ae. crassa*); shuningdek, 2023-yilda – 2,3 sm-dan (*Ae. triuncialis*) 9,6 sm-gacha (*Ae. crassa*) va mos ravishda o‘rtacha 36,7 sm-dan 38,2 sm-gacha o‘zgarishi kuzatilgan.

Aniqlanishicha, 2021-yilda turlar bo‘yicha “boshqodagi boshqochalar soni” belgisining o‘zgaruvchanligi sezilarli bo‘lib, 3,0 donadan (*Ae. triuncialis*) 14,0 donagacha (*Ae. tauschii*) o‘zgarishi kuzatildi. Shu bilan birga, boshqoda boshqochalar sonining minimal qiymatlari (3,0-5,0 donagacha) *Ae. triuncialis*, maksimal qiymatlari esa (8,0-14,0 donagacha) *Ae. tauschii* turi namunalarida kuzatilgan.

Aegilops L. turkumining mahalliy ekotiplarini qiyosiy tahlil qilish natijasida “boshqodagi don soni” bo‘yicha sezilarli farqlar aniqlandi. O‘rtacha, uch yillik tadqiqotlar davomida ushbu belgi bo‘yicha variatsiya qiymati – 2021-yilda 12,2%; 2022-yilda 12,6%; 2023-yilda 13,4%-ni tashkil etishi qayd etilgan.


“Boshqodagi don soni” belgisining o‘zgaruvchanligini qiyosiy tahlil qilish natijalari shuni ko‘rsatdiki, 2021-yilda 0,1 g-dan (*Ae. triuncialis*) 0,44 g-gacha (*Ae. crassa*) o‘zgarishi qayd etildi. 2022-yilda ushbu belgi bo‘yicha turlararo o‘zgaruvchanligi 0,15 g-dan (*Ae. triuncialis*) 0,64 g-gacha (*Ae. crassa*) va 2023-yilda esa 0,17 g-dan (*Ae. triuncialis*) 0,58 g-gacha (*Ae. crassa*) tashkil etgan.

O‘rganilayotgan *Aegilops* L. turlari namunalari uchun “1000 dona don og‘irligi” qiymati 2021-yilda 10,0 g-dan (*Ae. tauschii*) 20,50 g-gacha (*Ae. crassa*), 2022-yilda 11,4 g-dan (*Ae. tauschii*) 21,7 g-gacha (*Ae. crassa*), 2023-yilda 10,9 g-dan (*Ae. tauschii*) 21,0 g-gacha (*Ae. crassa*) o‘zgarishi qayd etilgan.

Bobning to‘rtinchi paragrafida SSR-markerlaridan foydalangan holda *Aegilops* L. turkumi mahalliy turlarining genetik xilma-xilligini baholash bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Aegilops L. turkumi 96 ta namunalarini SSR-tahlili natijasida jami 102 ta fragment aniqlanib, ulardan 65 tasi (63,7%) polimorf, 37 tasi (36,3%) monomorf fragmentlar ekanligi qayd etilgan.

Bitta praymer bilan amplifikatsiyalangan DNK fragmentlari soni 7 (WSP107) dan 17 (WSP513) gacha bo‘lganligi aniqlandi. Polimorf fragmentlarning maksimal soni WSP513 praymeri, minimali esa WSP107 praymeri asosida olindi (4-rasm). Shu bilan birga, *Ae. triuncialis* turining 34 genotipida uchta PZR fragmenti aniqlandi (4.d-rasm). Boshqa turlardan farqli o‘laroq, *Ae. cylindrica* va *Ae. triuncialis* SSR primerlari yordamida o‘zgaruvchanlikning eng past darajasini ko‘rsatdi, bunda polimorfizm mos ravishda 57,1% ni tashkil qilgan.



3-rasm. WSP190 praymer (gel fragmenti) yordamida olingan *Aegilops* L. turkumi turlari namunalarining SSR-spektri. O'ng chiziq – markerning molekulyar vazni.

1-jadval

Aegilops L. turkumining mahalliy turlarida SSR-praymerlari yordamida olingan PZR fragmentlar

Fragmentlar miqdori	Mikrosatellit lokuslari									Jami
	WSP 006	WSP 044	WSP 107	WSP 130	WSP 156	WSP 190	WSP 192	WSP 325	WSP 513	
<i>Ae. tauschii</i> (D)										
Jami	2	3	3	4	3	5	4	2	6	32
Polimorf	1	2	2	3	2	4	3	1	6	24
Polimorf, %	50	66,7	66,7	75	66,7	80	75	50	100	75
Monomorf	1	1	1	1	1	1	1	1	0	8
Monomorf, %	50	33,3	33,3	25	33,3	20	25	50	0	25
<i>Ae. crassa</i> (DM)										
Jami	3	0	1	5	5	1	2	5	6	28
Polimorf	2	0	0	5	3	0	0	5	2	17
Polimorf, %	66,7	0	0	100	60	0	0	100	33,3	60,7
Monomorf	1	0	1	0	2	1	2	0	4	11
Monomorf, %	33,3	0	100	0	40	100	100	0	66,7	39,3
<i>Ae. cylindrica</i> (CD)										
Jami	1	3	2	2	2	2	5	2	2	21
Polimorf	0	2	0	1	1	0	5	1	2	12
Polimorf, %	0	66,7	0	50,0	50,0	0	100	50,0	100	57,1
Monomorf	1	1	2	1	1	2	0	1	0	9
Monomorf, %	100,0	33,3	100	50,0	50,0	100	0	50,0	0	42,9
<i>Ae. triuncialis</i> (UC)										
Jami	2	2	1	2	2	5	2	2	3	21
Polimorf	1	2	0	1	1	1	2	1	3	12
Polimorf, %	50,0	100	0	50,0	50,0	20,0	100	50,0	100	57,1
Monomorf	1	0	1	1	1	4	0	1	0	9
Monomorf, %	50,0	0	100,0	50,0	50,0	80,0	0	50,0	0	42,9

9 ta SSR-praymerlari asosida *Aegilops* L. turkumining barcha o'rganilgan mahalliy turlarida aniq turichi farqlar kuzatildi. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, barcha o'rganilgan *Aegilops* L. turlarining genotiplarida WSP006, WSP044


praymerlari ikkita fragmentga yega bo‘lib alohida genotiplar va turlar uchun WSP130, WSP156, WSP192 praymerlari uchta fragmentga xosdir. *Aegilops* L. turkumining alohida turlari uchun WSP192 va WSP513 praymerlari yordamida uchtdan ortiq PZR fragmentlari xosligi qayd etildi (1-jadval). 9 ta SSR-praymerlaridan foydalanilgan holda *Ae. tauschii* turida 75% polimorfizm kuzatildi, ushbu holat balki bu turning moslashish qobiliyatiga bog‘liqdir. *Ae. crassa* turi uchun olingan natijalar boshqa turlardan (*Ae. cylindrica* va *Ae. triuncialis*) farqli o‘laroq yuqori polimorfliigi (60,7%) bilan farq qiladi. *Ae. cylindrica* tanlama genotiplari 9 ta foydalanilgan SSR-markerlaridan WSP006, WSP107 va WSP190, *Ae. triuncialis* uchun WSP006, WSP107 va WSP190 praymerlari 100% monomorf ekanligi aniqlandi. Biroq *Ae. crassa* namunalarida o‘zgaruvchanlikning past ekanligi, ya’ni 60,7% polimorf va 39,3% monomorf lokuslar xosligi qayd etildi va bu esa turichi o‘zgaruvchanlikning o‘rtacha darajada xos ekanligidan dalolat beradi. Boshqa turlardan farqli o‘laroq, Samarqand tumanidan to‘plangan *Ae. cylindrica* genotiplarida faqat WSP192 markeri uchun 100% polimorf lokuslar xosligi qayd etilgan.

Mikrosatellit lokuslari bo‘yicha namunalar xilma-xilligini qiyosiy tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, *Aegilops* L. turkumining mahalliy turlari genetik ko‘rsatkichlarning keng xilma-xilligi bilan ajralib turadi.

2-jadval

Aegilops L. turkumining mahalliy turlarida SSR-markerlarining PZR amplifikatsiyasi va genetik parametrlari

Lokus	Allel soni, (Na)	Turkum/tur				No	He	PIC	I
		<i>Ae. tauschii</i> (D)	<i>Ae. crassa</i> (DM)	<i>Ae. cylindrica</i> (CD)	<i>Ae. triuncialis</i> (UC)				
WSP006	8	2	3	1	2	0,004	0,69	0,63	1,27
WSP044	8	3	0	3	2	0,601	0,74	0,70	1,37
WSP107	7	3	1	2	1	0,000	0,75	0,69	1,40
WSP130	13	4	5	2	2	1,000	0,68	0,64	1,28
WSP156	12	3	5	2	2	1,508	0,72	0,67	1,32
WSP190	13	5	1	2	5	1,012	0,73	0,68	1,35
WSP192	13	4	2	5	2	0,003	0,72	0,67	1,32
WSP325	11	2	5	2	2	0,010	0,73	0,68	1,35
WSP513	17	6	6	2	3	0,602	0,75	0,71	1,39
Jami allellar	102	32	28	21	21	4,74	6,51	6,07	12,05
O‘rtacha	11,33	3,56	3,11	2,33	2,33	0,527	0,72	0,67	1,34



4-rasm. 9 SSR-markeri asosida *Aegilops* L. turkumi to'rtta mahalliy turlari 96 ta namunasining dendrogrammasi

9 ta polimorf SSR-markerlar asosida jami 102 ta allel amplifikatsiya qilindi (1-jadval). Bunda umumiy tanlamada allellar soni (Na) 7 (WSP107) dan 17 (WSP513) gacha va har bir lokusda o'rtacha 11,33 allelni tashkil etib, kutilayotgan geterozigotlik (Ho) oralig'i 0,000 (WSP107) dan 1,508 (WSP156) gacha o'zgarib va o'rtacha 0,527, kuzatilgan geterozigotlik (He) 0,68 (WSP130) dan 0,75 (WSP107, WSP513) gacha va o'rtacha qiymati 0,72 ga teng ekanligi qayd etilgan.

Bunda eng yuqori genetik xilma-xillik WSP044 va WSP513 uchun, eng kami esa WSP130 va WSP006 praymerlariga xos ekanligi qayd etildi. Har bir markerning polimorfizm axborot ko'rsatkichi (PIC) qiymatlari 0,63 (WSP006) dan 0,71 (WSP513) gacha va o'rtacha 0,68 ni tashkil etdi. Bunda eng yuqori PIC qiymatlari WSP513 praymer lokusi uchun, eng past esa WSP006 uchun qayd etildi.

Bundan tashqari, barcha mikrosatellit lokuslar 0,6 dan yuqori PIC qiymatiga ega ekanligi qayd etildi. Umumiy tanlamadagi Shennon xilma-xillik qiymatlari (I) 1,27 (WSP006) dan 1,40 (WSP107) gacha o'zgardi va o'rtacha 1,34 ni teng ekanligi qayd etildi.


UPGMA usuli bo'yicha 9 ta SSR-markerlari asosida olingan ma'lumotlardan tuzilgan dendrogramma 96 ta genotipni o'nta klasterga birlashtirdi. Tahlillar asosida o'rganilgan turlar quyidagicha klasterlarga taqsimlandi: *Ae. tauschii* 23 ta genotipi uchta (I-III) guruhlariga tegishlidir. Klasterning I guruhiga Samarqand tumanidan №1-4 (Ohalik populyatsiyalari), №5 (Oqbo'ryo populyatsiyasi), Urgut tumanidan №6-11 (Tersak, Qizilbosh, Omonqo'ton populyatsiyalarini) qamrab oladi. Klasterning II guruhiga Kitob tumanidan №12-23 genotiplari mansubdir (4a-rasm).

Shunday qilib, SSR-markerlari tahlili natijasida O'zbekistonning janubi-sharqiy mintaqasidan *Aegilops* L. turkumining to'rtta mahalliy turlari populyatsiyalarini genetik xilma-xilligi baholangan. Ularning polimorfizm darajasi va mikrosatellit lokuslarining allel tarkibiga asoslangan genetik xilma-xilligi aniqlangan.

Dissertatsiyaning "***Aegilops* L. turkumi mahalliy turlarida hosildorlik elementlarini shakllanishi**" deb nomlangan beshinchi bobida hosildorlikning fenotipik o'zgaruvchanligi va *Aegilops* L. turkumi mahalliy turlarining hosildorlik ko'rsatkichlari bilan bog'liqligi tahlili keltirilgan.

Ushbu bobning "Hosildorlikning fenotipik o'zgaruvchanligi va yuqori hosildor manbalar" deb nomlangan birinchi paragrafida *Aegilops* L. turkumi mahalliy turlari kolleksion namunalarini qiyosiy tahlil qilish natijalari keltirilgan.

Tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatdiki 2022-yil o'suv davrida turlarning o'rtacha hosildorligi $443 \pm 1,42$ g/m² tashkil etib, $203 \pm 1,41$ g/m² (*Ae. crassa*) dan $655 \pm 1,57$ g/m²-gacha (*Ae. cylindrica*) o'zgarishi qayd etilib, o'zgaruvchanlik koeffitsiyenti – $C_v=1,76\%$ -ni tashkil etdi. 2023-yilda *Aegilops* L. turkumi turlarining o'rtacha hosildorligi $384 \pm 1,48$ g/m² bo'lib, ushbu belgining o'zgaruvchanligi $171 \pm 1,38$ g/m² (*Ae. crassa*) dan $561 \pm 1,65$ g/m²-gacha (*Ae. cylindrica*) o'zgarishi qayd etildi (5-rasm).



5-rasm. *Aegilops L.* turkumi mahalliy turlarining hosildorligi

Shunday qilib, *Aegilops L.* turkumiga mansub mahalliy turlarning 140 ta kolleksion namunalarini Samarqand tumani sharoitida o'rganish natijasida namunalar hosildorligi bevosita tur xususiyatlariga va yil sharoitlariga bog'liqligini ko'rsatdi. Shu bilan birga, ko'rib chiqilayotgan belgining o'zgaruvchanligiga eng katta hissa – 71,3% - o'suv davri (yil) sharoiti, ikki omilning (genotip va yillar) o'zaro ta'siri - 7,2% va genotipning ta'siri – 2,6%-ni tashkil etishi qayd etildi.

Bobning ikkinchi paragrafida *Aegilops L.* turkumi mahalliy turlari kolleksion namunalarining fenologik va fenotipik belgilari o'rtasidagi korrelyatsiya tahlili ma'lumotlari keltirilgan.

Korrelyatsion tahlillar natijalariga ko'ra, 2021-2022 tadqiqot yillardagi vegetatsiya davrida yuqori ijobiy korrelyatsiya ($r > 0,5$) quyidagi belgilar o'rtasida kuzatildi: pishish (MT) va boshqash (HD) o'rtasida $r = 0,8^{***}$; boshqadagi don vazni (WKS) va hosildor poyalar (NFS) $r = 0,8^{***}$; hosildorlik (GY) va 1000 dona don og'irligi (WKP) $r = 0,7^{***}$ o'rtasida korrelyatsiya koeffitsiyentlari aniqlangan.

Shu bilan birga boshqadagi don vazni (WKS) va boshqash (HD) o'rtasida $g = 0,05^{**}$; 1000 dona don og'irligi (TKW) va boshqash (HD) $r = -0,02^{**}$; 1000 dona don og'irligi (TKW) va pishish (MT) $r = -0,07^{**}$; 1000 dona don og'irligi (TKW) va poya uzunligi (PH) $r = -0,2^{**}$; 1000 dona don og'irligi (TKW) va boshqash uzunligi (SL) $r = -0,03^{**}$ o'rtasida ham kuchsiz statistik ahamiyatga ega salbiy bog'liqlik aniqlandi (3-jadval).

***Aegilops L.* turkumi mahalliy turlari namunalarining fenologik va fenotipik belgilari o'rtasidagi korrelyatsiya (2021-2022 yy.)**

Belgi	HD	MT	PH	NFS	SL	WKS	WKP	TKW
MT	0,8 ***	-	-	-	-	-	-	-
PH	0,5 ***	0,3 ***	-	-	-	-	-	-
NFS	0,3 ***	0,4 ***	0,4 ***	-	-	-	-	-
SL	0,4 ***	0,2 ***	0,6 ***	0,5 ***	-	-	-	-
WKS	-0,05 **	0,03 **	0,2 ***	0,3 ***	0,4 ***	-	-	-
WKP	0,05 **	0,3 ***	0,4 ***	0,8 ***	0,4 ***	0,5 ***	-	-
TKW	-0,2 **	-0,07 **	-0,2 **	0,06 **	-0,03 **	0,4 ***	0,3 ***	-
GY	0,3 ***	0,3 ***	0,2 ***	0,2 ***	0,3 ***	0,5 ***	0,7 ***	0,09 *

Izoh: 1. HD – boshqlash dari (kun), MT – pishish davri (kun), PH – poya uzunligi (sm), NFS – hosildor poya (dona), SL – boshqoq uzunligi (sm), WKS – boshqoqdagi donning vazni (g), WKP – o'simlikdagi don vazni, TKW – 1000 dona don og'irligi (g), GY – hosildorlik (g/m²); 2. Gipotezaning xatolik yehtimoli bilan ahamiyati: ms – ahamiyatli yemas ($r > 0,05$); * – muhim ($r \leq 0,05$), ** – juda muhim ($r \leq 0,01$), *** – maksimal ahamiyatli ($r \leq 0,001$).

XULOSALAR

“*Aegilops L.* turkumining mahalliy ekotiplarini fenotipik va genotipik skriningi” mavzusi bo'yicha olib borilgan tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. O'zbekistonning janubi-sharqiy mintaqasi 3 ta dehqonchilik tumanlarida (Samarqand, Urgut, Kitob) ekspeditsiya tadqiqotlari natijasida 21 ta tabiiy o'sish joylari aniqlanib, birinchi marta mahalliy populyatsion kolleksiyasi shakllantirilgan bo'lib, ular 140 tani tashkil etgan: *Aegilops L.* turkumining 5 turi namunalari: *Ae. tauschii* (34), *Ae. crassa* (11), *Ae. cylindrica* (36), *Ae. triuncialis* (58), *Ae. juvenalis* (1).

2. Samarqand tumani sharoitida 140 ta namunadan iborat bo'lgan *Aegilops L.* turkumining mahalliy turlari kolleksiyasini miqdoriy belgilari bo'yicha o'rganish natijasida qimmatli namunalarni identifikatsiyalash imkonini berdi: vegetatsiya davri bo'yicha – *Ae. tauschii* (k-28; k-40; k-42; k-68), o'simlik uzunligi bo'yicha – *Ae. tauschii* (k-4), *Ae. crassa* (k-18), *Ae. triuncialis* (k-45), hosildor poyalar bo'yicha – *Ae. tauschii* (k-5; k-28), *Ae. crassa* (k-19, k-24) bug'doyni yaxshilash uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

3. Qimmatli xo'jalik belgilaridan boshqoqdagi don soni bo'yicha – *Ae. tauschii* (k-43; k-54; k-68), boshqoqdagi don vazni bo'yicha – *Ae. cylindrica* (k-20; k-25; k-34), 1000 dona don og'irligi bo'yicha – *Ae. triuncialis* (k-14; k-17; k-20) kolleksion namunalarining keng polimorfizmi aniqlandi.

4. SSR-markerlari yordamida O'zbekistonning janubi-sharqiy mintaqasidagi 21 ta o'sadigan joylardan birinchi marta *Aegilops L.* turkumining 4 mahalliy turlaridan olingan kolleksiya namunalarining molekulyar-genetik tahlili o'tkazildi.

5. Uch yil davomida dala ma'lumotlari asosida o'tkazilgan dispersion tahlili (ANOVA) *Aegilops* L. turkumi mahalliy turlarining hosildorligiga asosan atrof-muhit omillari (71,3%) ta'sir qilganligini aniqlash imkonini berdi. Ekin strukturasi elementlaridan boshoqdagi boshoqchalar soniga (74,8 %), eng kami hosildor poyalarga (18,1 %) muhit eng ko'p ta'sir ko'rsatdi.

6. Boshq uzunligi (SL) va poya uzunligi (PH) (0,6***), boshq uzunligi (SL) va hosildor poyalar (NFS) (0,5***), o'simlikdagi don vazni (WKP) va hosildor poyalar (NFS) (0,8***), hosildorlik (GY) va boshoqdagi don vazni (WKP) (0,7***), pishish (MT) va boshoqlash (HD) (0,8***) o'rtasida ijobiy bog'liqlik aniqlandiki, ularni bug'doy navlarini yaxshilash bo'yicha seleksiya ishlarini olib borishda e'tiborga olish lozim.

7. Bahorgi yumshoq bug'doyni yaxshilashda milliy dasturlar uchun *Aegilops* L. turkumining mahalliy turlari namunalaridan o'simlik bo'yi, boshoqdagi boshoqchalar soni, 1000 dona don vazni belgilari asosida tanlash tavsiya etiladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ
DSc.02/30.12.2019.B.53.01 ПРИ ИНСТИТУТЕ ГЕНЕТИКИ И
ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОЙ БИОЛОГИИ РАСТЕНИЙ**

**ИНСТИТУТ ГЕНЕТИКИ И ЭКСПЕРИМЕНТАЛЬНОЙ БИОЛОГИИ
РАСТЕНИЙ**

СОБИРОВ ФАРИДУН ШАВКАТОВИЧ

**ФЕНОТИПИЧЕСКИЙ И ГЕНОТИПИЧЕСКИЙ СКРИНИНГ
МЕСТНЫХ ЭКОТИПОВ РОДА *AEGILOPS* L.**

03.00.09 – общая генетика

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО БИОЛОГИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за № В2023.4.PhD/В1054

Диссертация выполнена в Институте генетики и экспериментальной биологии растений.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.genetika.uz) и Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz)

Научный руководитель:

Джаббаров Иброхим Шодманович
доктор биологических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Адилов Бахтиёр Шухратович
доктор биологических наук

Халилов Насриддин Халилович
доктор сельскохозяйственных наук, профессор

Ведущая организация:

Ташкентский государственный аграрный университет

Защита диссертации состоится “___” _____ 2025 г. в ___ часов на заседании Научного совета DSc.02/30.12.2019.B.53.01 при Институте генетики и экспериментальной биологии растений (Адрес: 111208, Ташкентская область, Кибрайский район, п/о Юкори - юз, актовъй зал Института генетики и экспериментальной биологии растений. Тел.:(+99871)264-23-90, факс (+99871)264-23-90. E-mail: igebr@academy.uz, genetics@uzsci.net, gen@inst.gov.uz

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Института генетики и экспериментальной биологии растений (зарегистрирована за №.....). Адрес: 111208, Ташкентская область, Кибрайский район, п/о Юкори-юз. Тел.: (+99871)264-23-90.

Автореферат диссертации разослан “___” _____ 2025 года
(реестр протокола рассылки ”___” от “___” _____ 2025 года)

А.А. Нариманов

Председатель научного совета по
присуждению ученых степеней,
д.с./х.н., профессор

И.Дж.Курбанбаев

Ученый секретарь научного
совета по присуждению ученых
степеней, д.б.н., профессор

С.К.Бабоев

Председател научного семинара
при научном совете по
присуждению ученых степеней,
д.б.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ

(Аннотация диссертации доктора философии (PhD) наук)

Актуальность и востребованность темы диссертации. Пшеница, являясь одной из самых важных зерновых культур в мире, возделывается на пяти континентах, занимает больше посевных площадей по всему миру. Мировой опыт селекции пшеницы показывает, что целенаправленная селекция на продуктивность и многовековое возделывание этой культуры привели к резкому снижению ее генетического разнообразия, безвозвратно утрачены ценные адаптивные аллели, произошло обеднение генофонда современных сортов пшеницы по генам устойчивости к вредоносным заболеваниям, усиливая угрозу снижения адаптивности к биотическим стрессам. Для обогащения генофонда этой главной продовольственной культуры земного шара, неисчерпаемый резерв хозяйственно-ценных признаков представляет собой генофонд многочисленных родственных мягкой пшенице видов и родов, несущие эффективные гены. Являясь близкородственными роду *Triticum* L., представители рода *Aegilops* L. могут быть использованы в селекционных программах по улучшению пшеницы и в филогенетических исследованиях.

В последние десятилетия во всем мире интенсивно проводятся исследования по фенотипированию и генотипированию диких родственников пшеницы (род *Aegilops* L.). Изучение генетического разнообразия местных видов рода *Aegilops* L. является одной из актуальных проблем возделывания пшеницы, которая служит основой развития селекции и обеспечения пищевой безопасности. Генофонд многих родов и видов мягкой пшеницы, несущие эффективные гены и обогащающие генофонд этой главной продовольственной культуры мира, представляет собой неисчерпаемый резервуар ценных в хозяйственном отношении признаков. Местные виды рода *Aegilops* L. являются источниками важных генов устойчивости сортов пшеницы. В связи с этим сбор, сохранение, изучение, селекция и генетическое исследование генофонда видов *Aegilops* L. имеет большое научное и практическое значение.

